

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO`NALISHLARI

*A.A Qodirov - i.f.f.d., dotsent*

*E-mail: azizqodir@mail.ru*

*Aslonov Nasillo Jabborovich - magistr*

**Annotatsiya**

Tadbirkorlikning qaror topishi natijasida aholida pul daromadlari shakllanadi. Shuning uchun tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun turli usullar bilan qo'llab-quvvatlashimiz zarur. Bu bilan nafaqat aholi pul daromadlarini oshirishga, balki mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishga erishiladi. Kichik biznes bu iqtisodiyotning yangi va quyi pog'onadan shakllanib kelayotgan, bir so'z bilan aytganda yosh tarmoq sifatida qaraladi. Ushbu tarmoqqa e'tiborni kuchaytirish iqtisodiyotni tanglik holatidan chiqib ketishining eng to'g'ri yo'l bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Tadbirkorlik, daromad, tarmoq, kichik biznes, kategoriya, xususiylashtirilgan korxonalar

Tarixda tadbirkorlik faoliyati erkin iqtisodiy sharoitda qaror topishini isbotladi. Shunday ekan, tadbirkorlik faoliyatini muayyan bilimlarga asoslanib tavakkal qilingan va shaxsiy mulk ishtirok etgan faoliyat turi sifatida qarash mumkin. Soddaroq aytganda, tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining bosh bo'g'inini tashkil etadi. Ya'ni, Xususiy tadbirkorlikni tashkil etishdan maqsad iqtisodiyotdagi sust faoliyat yurgizayotgan tarmoqlarni faolilashtirish hamda integratsiyalashuv yordamida tarmoqlarni yangi muhitga o'rgatib borishdan iborat.

Ko'pchilik adabiyotlarda kichik biznes kategoriyasini xususiylashtirilgan korxonalar termini bilan tushuntiradilar. R. Xodjaevning fikricha «Xususiylashtirishning iqtisodiy mohiyati - mulkka egalik, huquqiy davlatdan yangitdan shakllanayotgan turli mulkchilik shakllaridan korxonalar, muassasalar va va ayrim shaxsga egalik qilish huquqini belgilashni hamda davlat tomonidan xususiy sektorga xizmat ko'rsatishini cheklanishi yoki xususiy tashabbuskorliklari uchun keng imkoniyatlar berilishi, ijtimoiy himoyalanihini kafolatlanishini kuchaytirishdir». Bu yerda muallif davlat tassarufida bo'lgan korxonalarini xususiylashtirish jarayonini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish sifatida qaragan. Aslini olganda xususiylashtirish jarayoni kichik biznesni tashkil etishning dastlabki urinishi sifatida qaralishi lozim. Chunki ushbu jarayonning asosiy maqsadi ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish va alohida mulkka bo'lgan egalik hissini uyg'otish hamda kuchaytirishdan iborat. Bu esa xususiy tadbirkorlikni tashkil etishda juda muhim bosqich. Xususiylashtirish jarayoni bilan kichik biznesni tashkil etish o'rtasida tafovutlar

mavjud. Birinchidan, xususiylashtirish jarayonida minglab ishchilarga ega bo'lgan katta korxonalar ham davlat tassarufidan chiqarilgan, kichik biznesga esa bunday korxonalar kiritilmaydi. Ikkinchidan kichik biznesda kichik korxonalar va mikrofirmalar boshlang'ich kapital bilan tashkil etilsa, xususiylashtirish jarayonida bunday bosqichdan o'tib bo'lingan bo'ladi.

B. Mamatovning fikricha «Tadbirkorlik - bu iste'molchilarning tovar va xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish yo'li bilan foyda olishga yo'naltirilgan turli xil xo'jalik hamda moliyaviy munosabatlarini aks ettiruvchi faoliyatni o'zida mujassamlaydi». hozirgi kunda respublikamizda kichik biznesni tasnif-lashni takomillashtirish, rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash va baholash, iqtisodiyot va mulk sektorlari rivojlanishidagi o'zaro aloqalar hamda nomutanosibliklarni aniqlash, kichik biznesni rivojlantirishdagi institutsional o'zgarishlarni ilmiy tahlil etgan holda ustuvor yo'nalishlarini aniqlash kabi ilmiy-nazariy muammolar, kichik biznes genezisi va rivojlanish qonuniyatlarini, antimonopol siyosat, raqobatchilik muhiti va mexanizmlari bilan bog'liqlikda tizimli tahlil etish, rivojlangan davlatlarda iqtisodiyot tarmoqlari taraqqiyoti barqarorligini baholashda samarali qo'llanilayotgan usul va modellar yordamida respublikamizda kichik biznesning iqtisodiyot tarmoqlaridagi rivoji hamda istiqbollari baholash, kichik biznes sub'ektlari uchun iqtisodiyot tarmoqlari jozibadorligini zararsizlik tahlili yordamida aniqlash, kichik biznes sub'ektlari "hayotiy siklini" uzaytirish, ularni barqaror va mutanosib rivojlanishini monitoring qilib borishni ta'minlaydigan qo'shimcha statistik ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, respublikamiz mintaqalarida kichik biznes rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash kabi ilmiy-amaliy muammolarni hal qilish va amaliy tatbiq etishga haqiqiy zarurat tug'ilmoqda. 2010 yil davomida ma'lumotlaridan kreditlar va mikro kreditlar hajmining tijorat banklari tomonidan kichik biznes subektlariga ajratilgan kreditlar hajmi o'sib, 2,7 trln. so'mga yetgan. Shundan, 485,2 mlrd. so'mni soha subektlariga ajratilgan mikro kreditlar tashkil yetib, 2000 yilga nisbatan o'sish 39 barobarni tashkil yetgan.

2011 yilda esa bu sohaga tijorat banklari tomonidan 4.1 trln. so'mdan ortiq miqdorda kreditlar shu jumladan, 752,0 mlrd. so'm miqdorda mikro kreditlar ajratilgan. 2012 yilda kichik biznes sub'ektlariga 5,3 trln so'm miqdorida kreditlar va 1172 mlrd. so'mdan ortiq mikro kreditlar ajratilgan. Mazkur sohaga ajratilgan kreditlar ichida tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasidan berilgan imtiyozli kreditlarning hajmi ham oshib bormoqda. Shuningdek: - mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga jami 978,2 mlrd. so'm; - nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishga 1 trln. 41,3 mlrd. so'm;

- imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi hisobidan 42,3 mlrd.so'm;

- xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy mamlakatlar hukumatlarining kredit liniyalari va grantlari hisobidan 181,7 mln. AQSh dollari miqdorida kredit mablag'lari

ajratildi.

“Mustahkam oila yili” Davlat dasturida bank tizimiga yuklatilgan vazifalar to’liq ijro etildi. Jumladan, 2012 yil mobaynida:

- oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga 97,8 mlrd. so’m;
- xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish maqsadlariga 491,7 mlrd. so’m;
- shaxsiy yordamchi va dehqon xo’jaliklariga qoramol sotib olishga jami 77,6 mlrd. so’m;
- meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, parrandachilik, asalarichilik va baliqchilikni rivojlantirishga 339,8 mlrd. so’m miqdorida kredit mablag’lari ajratildi.

Shu bilan birga, banklar tomonidan 2012 yilda Xalqaro hamkorlik bo’yicha omonat kassalari jamg’armasining (Germaniya) “Xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash bo’yicha qayta tiklanuvchi kredit jamg’armasi” mablag’lari hisobidan Qoraqalpog’iston Respublikasi, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi tadbirkor ayollarga boshlang’ich kapitalni shakllantirish uchun 267,8 ming yevro miqdorida mikrokreditlar ajratildi.

2012 yil davomida kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga tadbirkorlik faoliyati bilan bog’liq loyihalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan 48,5 mlrd. so’m miqdorida imtiyozli mikrokreditlar ajratildi.

O’tgan yilda, oilalarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash, turmush darajasini oshirish maqsadida mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar, jumladan mebellar, maishiy texnikalar va boshqa turdagi uzoq foydalaniladigan jihozlarni sotib olishga jami 320 mlrd. so’mlik, shu jumladan 15 mingta yosh oilaga uch yillik qaytarish muddati bilan 81 mlrd. so’mlik iste’mol kreditlari ajratildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish borasida qabul qilingan farmon va qarorlari ijrosini ta’minlash borasida amalga oshirilgan keng ko’lamli chora-tadbirlar natijasida soha subektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2012 yilning shu davriga nisbatan 1,4 barobar oshib, 2013 yil 1 aprely holatiga ko’ra 1,6 trln. so’mni tashkil etdi. Kichik biznesni rivojlantirishda mintaqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan mahalliy hokimiyat organlari o’z hududining moliyaviy va moddiy imkoniyatlarini, mahsulot va xizmatlarning muayyan turlari bo’yicha aholining haqiqiy ehtiyojlarini, mintaqa nuqtai nazaridan faoliyat sohalari va mulkchilik shaklidagi resurslardan samarali foydalanish yo’llarini aniq bilishadi.

O’zbekiston Respublikasining Prezidenti 2018 yilning 28 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida shunday degan edi: “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar doirasida 2 trillion so’mga yaqin mablag’ ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi. Bu yildan boshlab, soliqlarning

prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan hududlarda 5,5 trillion so'm qo'shimcha mablag' qoldirildi. Bu, o'tgan yilga nisbatan 6 barobar, 2016 yilga nisbatan esa – 32 barobar ko'pdir"<sup>1</sup>.

Tadbirkorlik tuzilmalarini rivojlantirishda mahalliy hokimiyatning ta'sir qilish imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha mamlakatimiz tajribasining ko'rsatishicha, keyingi yillarda tadbirkorlikni yetarli darajada jiddiy rivojlanishi ta'minlandi. Shuni ta'kidlash joizki 2018 yil 1 yanvar holatiga mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan 285.5 mingta korxonalarining 229,6 mingdan ortig'i kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi va ularning 10 foizi<sup>2</sup> qurilish sohasida faoliyat olib borayotgan kichik korxonalaridir. Tashkiliy-huquqiy nuqtai nazardan olib qaraganda jami korxonalarining 75,8 mingtasi xususiy korxonalar hisoblanadi.

Hududlar kesimida tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishida Toshkent viloyati alohida ahamiyat kasb etib jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 9.4 foizi ushbu hudud hissasiga to'g'ri keladi va Toshkent shahridan keyingi o'rinni egallaydi. Biroq 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni bo'yicha hududlar kesimida 4 o'rinni egallab 14.2 birlikni tashkil qiladi.

Viloyatda ro'yhatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining barqaror o'sishi ta'minlanmoqda. Xususan, 2015 yil 1 yanvar holatiga ularning soni 21741 ta bo'lib, respublikada hudud ulushi 9.8 foizni tashkil qilgan. Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlarini rolini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil 1 yanvar holatiga mazkur ko'rsatkich 25128 tani tashkil qilib, hududning ushbu ko'rsatkich bo'yicha ulushi 10.4 foizga yetgan.

Kichik korxonalarini ochishda kuzatilgan asosiy muammolar zarur binolarning yetishmasligi, kredit olishdagi muammolar yoki yuqori foizli kredit ko'yilmalari orqali vujudga keladi. Buni inobatga olgan holda O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha har yili maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va tasdiqlanishiga qaramasdan bugungi kunda kichik biznesni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan kamchiliklar ham uchrab turadi.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan muammolarning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri – bozor tizimi asosini tashkil etuvchi tadbirkorning manfaatlarini chetlab o'tgan holda, yuqoridan ma'muriy buyruqbozlik asosida bozor iqtisodiyotiga o'tish holatlarining uchrashidir. Bozor iqtisodiyotini yaratish mantig'ining o'zi ham "pastdan yuqoriga" harakatlanish, ya'ni tadbirkorning manfaatdorligidan ushbu manfaatni amalga oshiruvchi va tashkil etuvchi markazlashgan bozor infratuzilmasini (soliq, kredit siyosati, bank, birja va boshqalar) yaratishgacha harakat qilishni talab qiladi. Kichik biznesni tashkil etish uchun dastlabki kapitalni shakllantirish

<sup>1</sup> "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019

<sup>2</sup> "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019

manbalarini aniqlash bilan bog'liq kamchiliklarni e'tirof etmaslik mumkin emas.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanishining xalqaro tajribalari shuni ko'rsatdiki, kichik biznes, birinchi navbatda ma'muriy nazoratga emas, balki moliyaviy va iqtisodiy qo'llab - quvvatlashga muhtoj.

Shunday ekan, kichik biznes uchun davlat kafolatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat kafolatlari o'zida tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xatti-harakatlarni tizimli ravishda amalga oshirishlari, shuningdek, investor hisoblangan va yuridik shaxslar ro'yxatidan o'tishidan qat'i nazar investitsiyalarni himoya qilishga qaratilgan chora – tadbirlar tizimini yaratishi kerak. Ushbu tizimning samarali ishlashi o'z navbatida mintaqa hududida investitsion faoliyat olib borayotgan barcha investorlarga taqdim qilinadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Тошкент, «Ўзбекистон», 2017 йил, 488 бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамыз. Тошкент, «Ўзбекистон», 2016 йил, 56 бет.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент, «Ўзбекистон», 2017 йил, 48 бет. 236
4. Мирзиёев Ш.М. —Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак // 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь.
5. Аакер Д.А. Стратегическое рыночные управление / Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2002.
6. Абдукаримов Б.Х. ва бошқалар. Корхона иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2013.
7. Агафонов В.А. Стратегический менеджмент. Модели и процедуры: Монография / В.А. Агафонов. - М.: Инфра-М, 2019. - 350 с.
8. Аникин Б.А. Логистика производства: теория и практика: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / В. А. Волочиенко, Р. В. Серышев ; отв. ред. Б. А. Аникин. - М.: Издательство Юрайт, 2019. - 454 с.
9. Ахунова Г.Н. Йўлдошев Н.К. Иқтисодиёт ва менежмент: Дарслик. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2005. – 175 б.
10. Бараненко С.П. Стратегический менеджмент. / С.П. Бараненко. - М.: Центрполиграф, 2019. - 480 с.
11. Бекмуродов А.Ш., Янг Сон Бе. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: Кластерный подход. Монография. – Т.: ТГЭУ, 2006. – 112 с